



IMPROVING METHODS FOR DEVELOPING STUDENTS' CREATIVE SKILLS THROUGH EXTRACURRICULAR ACTIVITIES

Egamova Ravshanoy Surobjonovna,
Independent Researcher at Kokand State University
ravshanoyegamova9@gmail.com

Abstract

This article analyzes, from a scientific and pedagogical perspective, the issues of improving methods for developing students' creative skills through extracurricular activities. In the modern education system, the development of students' creative thinking, independent decision-making abilities, creative approaches to problem-solving, and communicative competencies is considered one of the most pressing pedagogical tasks. From this perspective, the article highlights the didactic potential of extracurricular activities, their pedagogical essence, and their role in fostering students' creativity. During the study, the effectiveness of interactive methods, particularly the "Graphic Test" and "Find the Mistake" methods, as well as STEAM-based activities, was analyzed. The results of the experimental work demonstrated that extracurricular activities significantly contribute to the development of students' creative thinking, independent learning, and problem-solving skills. Based on the research findings, practical recommendations for improving extracurricular activity methodology were developed.

Keywords: Extracurricular activities, creativity, creative thinking, didactic support, interactive methods, Graphic Test, Find the Mistake method, STEAM, pedagogical technology, competency.



**SINFDAN TASHQARI ISHLAR ASOSIDA O‘QUVCHILARDA
IJODKORLIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH
METODLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

Egamova Ravshanoy Surobjonovna,
Qo‘qon davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
ravshanoyegamova9@gmail.com

Annotatsiya:

Mazkur maqolada sinfdan tashqari ishlar asosida o‘quvchilarda ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish metodlarini takomillashtirish masalalari ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Zamonaviy ta‘lim tizimida o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi, mustaqil qaror qabul qilishi, muammolarga kreativ yondashuvi hamda kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan maqolada sinfdan tashqari ishlarining didaktik imkoniyatlari, ularning pedagogik mohiyati hamda o‘quvchilar ijodkorligini rivojlantirishdagi o‘rni yoritilgan. Tadqiqot davomida interfaol metodlar, xususan, “Grafik test” va “Xatoni top” metodlari, shuningdek, STEAM yondashuvi asosidagi mashg‘ulotlarning samaradorligi tahlil qilindi. Tajriba-sinov natijalari sinfdan tashqari mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarning ijodiy tafakkuri, mustaqil fikrlashi va muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalari sezilarli rivojlanganligini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalari asosida sinfdan tashqari ishlar metodikasini takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: sinfdan tashqari ishlar, ijodkorlik, kreativ fikrlash, didaktik ta‘minot, interfaol metodlar, Grafik test, Xatoni top, STEAM, pedagogik texnologiya, kompetensiya.



СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОВ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ НАВЫКОВ У УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ ВНЕКЛАССНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация:

В данной статье с научно-педагогической точки зрения проанализированы вопросы совершенствования методов развития творческих навыков учащихся на основе внеклассной деятельности. В современной системе образования развитие творческого мышления учащихся, их способности к самостоятельному принятию решений, креативному подходу к проблемам и коммуникативных компетенций рассматривается как одна из актуальных педагогических задач. В этой связи в статье раскрываются дидактические возможности внеклассной деятельности, её педагогическая сущность и роль в развитии творческих способностей учащихся. В ходе исследования проанализирована эффективность интерактивных методов, в частности методов «Графический тест» и «Найди ошибку», а также занятий, организованных на основе STEAM-подхода. Результаты опытно-экспериментальной работы показали, что посредством внеклассных занятий значительно развиваются творческое мышление учащихся, их самостоятельность и навыки решения проблемных ситуаций. На основе результатов исследования разработаны практические рекомендации по совершенствованию методики внеклассной деятельности.

Ключевые слова: внеклассная деятельность, творчество, креативное мышление, дидактическое обеспечение, интерактивные методы, графический тест, метод «Найди ошибку», STEAM, педагогическая технология, компетенция.

Kirish:

Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida o'quvchilarni ijodkor, tashabbuskor va mustaqil fikrlaydigan shaxs sifatida tarbiyalash dolzarb vazifaga aylanmoqda. XXI asr ta'lim paradigmasi bilimlarni oddiy o'zlashtirish bilan cheklanmay, balki ularni amaliyotga tatbiq eta oladigan, muammolarga kreativ yondasha oladigan va yangilik yaratishga moyil shaxsni shakllantirishni talab



etmoqda. Shu sababli umumta'lim maktablarida nafaqat dars jarayonini, balki sinfdan tashqari faoliyatni ham pedagogik jihatdan takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning qiziqishi, ehtiyoji va individual imkoniyatlariga mos ravishda tashkil etiladigan pedagogik faoliyat turi bo'lib, ular o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, bilimlarni mustahkamlash hamda ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, bugungi globallashuv sharoitida yosh avlodni kreativ tafakkur asosida tarbiyalash, ularning ijtimoiy moslashuvchanligi va innovatsion faoliyatini rivojlantirishda sinfdan tashqari mashg'ulotlarning pedagogik salohiyati tobora ortib bormoqda.

Pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning ijodkorligi dars jarayonidagina emas, balki erkin faoliyat, qiziqishga asoslangan loyihalar, to'garaklar va interfaol mashg'ulotlar orqali samaraliroq rivojlanadi. Chunki sinfdan tashqari ishlar o'quvchini standart javoblardan voz kechib, muammolarga noan'anaviy yondashishga undaydi. Bu esa o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv va kreativ qarashlarning shakllanishiga imkon yaratadi.

Mazkur maqolaning maqsadi sinfdan tashqari ishlar asosida o'quvchilarda ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodlarini takomillashtirishning nazariy va amaliy asoslarini yoritish hamda samarali pedagogik tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Muammoning o'rganilganlik darajasi va adabiyotlar tahlili: Sinfdan tashqari ishlar pedagogikada uzoq yillardan buyon o'rganib kelinayotgan ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Mazkur faoliyatning pedagogik mohiyati, tarbiyaviy imkoniyatlari hamda o'quvchilar shaxsini rivojlantirishdagi ahamiyati turli ilmiy maktablar tomonidan tahlil qilingan.

Mamlakatimiz pedagog olimlari sinfdan tashqari ishlarni ta'lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi sifatida baholab, ularning o'quvchilar ma'naviyati, axloqiy qarashlari va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rnini yoritganlar. Xususan, sinfdan tashqari faoliyat o'quvchilarda mustaqillik, jamoada ishlash, mas'uliyat hamda mehnat madaniyatini shakllantiruvchi muhim pedagogik vosita sifatida e'tirof etiladi.



Xorijiy tadqiqotlarda esa sinfdan tashqari faoliyat ko'proq kreativlik va kompetensiyaviy yondashuv bilan bog'liq holda o'rganiladi. Faoliyatga asoslangan ta'lim nazariyasi vakillari o'quvchining shaxsiy tajribasi, mustaqil faoliyati va ijtimoiy muhit bilan hamkorligini ta'lim samaradorligining muhim omili sifatida baholaydilar.

Ijodkorlik masalasi ham pedagogik va psixologik tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ijodkorlik odatda yangi g'oya yaratish, muammoni original hal qilish hamda mavjud bilim va tajribani yangicha kombinatsiyalash qobiliyati sifatida izohlanadi. Pedagogik nuqtayi nazardan esa ijodkorlik o'quvchining bilish faoliyatidagi mustaqilligi va faol subyektiv pozitsiyasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sinfdan tashqari ishlar va ijodkorlik masalalari alohida tadqiq qilingan bo'lsa-da, aynan sinfdan tashqari faoliyat asosida ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodlarini takomillashtirish yetarli darajada tizimli o'rganilmagan. Mazkur holat tadqiqot muammosining dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqot jarayonida sinfdan tashqari ishlar asosida o'quvchilarda ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodlarini takomillashtirishga qaratilgan nazariy va amaliy yondashuvlar qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasining asosini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, faoliyatga asoslangan o'qitish hamda kreativ pedagogika tamoyillari tashkil etdi.

Tadqiqot davomida nazariy va empirik metodlardan foydalanildi. Nazariy metodlar sifatida ilmiy-pedagogik, psixologik hamda metodik adabiyotlarni tahlil qilish, me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'rganish, qiyosiy va tizimli tahlil metodlari qo'llanildi. Empirik metodlar sifatida kuzatuv, suhbat, so'rovnoma, diagnostik topshiriqlar hamda pedagogik tajriba-sinov ishlari tashkil etildi.

Tajriba-sinov ishlari Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Jizzax va Farg'ona viloyatlaridagi umumta'lim maktablarida olib borildi. Tadqiqotda jami 543 nafar o'quvchi ishtirok etdi. Shundan 263 nafari tajriba guruhini, 280 nafari nazorat guruhini tashkil etdi. Tajriba jarayonida o'quvchilarning ijodiy fikrlash darajasi,



mustaqil faoliyati, muammoli vaziyatlarga yondashuvi va kommunikativ ko'nikmalari o'rganildi.

Tadqiqotning metodologik asosini o'quvchilarning ijodkorligini rivojlantirishning uch bosqichli modeli tashkil etdi. Birinchi bosqich motivatsion bosqich bo'lib, unda o'quvchilarda qiziqish va ichki ehtiyoj uyg'otishga e'tibor qaratildi. Ikkinchi bosqich faoliyat bosqichi bo'lib, unda interfaol metodlar va amaliy topshiriqlar orqali ijodiy faoliyat tashkil qilindi. Uchinchi bosqich refleksiv bosqich bo'lib, unda o'quvchilar o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va kelgusi faoliyatini rejalashtirishga yo'naltirildi.

Mazkur metodologiya o'quvchilarning individual qobiliyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ijodiy salohiyatni kompleks rivojlantirishga xizmat qildi.

Sinfdan tashqari ishlar asosida ijodkorlikni rivojlantirish metodlari: Sinfdan tashqari mashg'ulotlarni samarali tashkil etishda interfaol va innovatsion metodlardan foydalanish muhim pedagogik shart hisoblanadi. Tadqiqot davomida o'quvchilarning ijodkorligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodlar takomillashtirildi hamda ularning samaradorligi amaliy jihatdan sinovdan o'tkazildi.

Sinfdan tashqari faoliyatni tashkil etishda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va individual imkoniyatlarini hisobga olish asosiy mezon sifatida belgilandi. Chunki ijodiy faoliyat faqatgina o'quvchi o'zini erkin his qiladigan, rag'batlantiruvchi va hamkorlikka asoslangan muhitda samarali rivojlanadi.

Mazkur tadqiqot doirasida "Grafik test" va "Xatoni top" metodlari modifikatsiyalangan holda qo'llanildi.

"Grafik test" metodining pedagogik imkoniyatlari: "Grafik test" metodi sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash bilan bir qatorda ularning tasavvurini, diqqatini hamda kreativ fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur metodning mohiyati shundan iboratki, o'quvchilar berilgan topshiriqlar yoki savollarga mos javoblarni aniqlash orqali ma'lum grafik shaklni hosil qiladilar.

Metodning bajarilish bosqichlari quyidagicha tashkil etildi:

1. O'quvchilarga topshiriqlar va savollar taqdim etiladi;



2. Har bir o'quvchi javoblarni mustaqil tanlaydi;
3. To'g'ri javoblarga mos kataklar belgilanadi;
4. Grafik shakl hosil qilinadi;
5. Hosil bo'lgan tasvir pedagogik mazmun bilan izohlanadi;
6. O'quvchilar natija yuzasidan o'z fikrlarini bildiradilar.

Mazkur metodning afzalligi shundaki, u nazariy bilimni vizual faoliyat bilan bog'laydi. Masalan, tarbiya mashg'ulotlarida "Yaxshi fazilatlar daraxti", adabiyot fanida esa "Asar qahramoni xaritasi" shaklida qo'llash mumkin. O'quvchilar grafikani yaratish jarayonida nafaqat bilimlarni esga tushiradi, balki mazmunni tahlil qiladi va yangi bog'lanishlarni hosil qiladi.

Tajriba jarayonida ushbu metod o'quvchilarda kuzatuvchanlik, mantiqiy tafakkur, ijodiy yondashuv va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qilgani aniqlandi.

"Xatoni top" metodining didaktik ahamiyati: "Xatoni top" metodi o'quvchilarning tahliliy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan interfaol usullardan biridir. Metodning asosiy maqsadi o'quvchilarda matn, fikr yoki vaziyatdagi nomuvofiqliklarni aniqlash hamda ularni to'g'rilash orqali tanqidiy va kreativ tafakkurni rivojlantirishdan iborat.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda metod quyidagi tartibda tashkil etildi:

- o'quvchilarga xatoliklar kiritilgan matn yoki vaziyat taqdim etildi;
- o'quvchilar xatolarni mustaqil yoki guruhda aniqladilar;
- xatolarni izohlash va tuzatish bo'yicha muhokama tashkil qilindi;
- yakunda to'g'ri variant ishlab chiqildi.

Mazkur metod ona tili va adabiyot mashg'ulotlarida imlo hamda uslubiy xatolarni topishda, tarbiya mashg'ulotlarida esa axloqiy vaziyatlarni tahlil qilishda samarali natija berdi. O'quvchilar xatoni izlash jarayonida diqqatini jamlaydi, sabab-oqibat bog'lanishini aniqlaydi hamda muammoning muqobil yechimlarini izlaydi.

Natijada o'quvchilarda tanqidiy tafakkur, savodxonlik, o'z-o'zini nazorat qilish hamda mas'uliyat hissi shakllanadi.



STEAM yondashuvi va kreativ faoliyat: Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda STEAM yondashuvi alohida pedagogik imkoniyatlarga ega. Mazkur yondashuv fanlararo integratsiyaga asoslanib, o'quvchilarning real hayotiy muammolarni hal qilishga tayyorligini rivojlantiradi.

STEAM asosidagi mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilar loyiha yaratish, sahna ko'rinishlari tayyorlash, raqamli taqdimotlar ishlab chiqish va matn bilan ishlash kabi faoliyatlarga jalb etildi. Bunday faoliyatlar ularning kreativ tafakkurini rivojlantirib, kelajak kasblariga qiziqishini kuchaytirdi.

Tajriba kuzatuvlari shuni ko'rsatdiki, integratsiyalashgan mashg'ulotlar o'quvchilarda muammoga kompleks yondashish, jamoada ishlash va innovatsion fikrlash ko'nikmalarining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tajriba-sinov natijalari va statistik tahlil: Tadqiqot doirasida sinfdan tashqari ishlar asosida o'quvchilarda ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodlarining samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari tashkil etildi. Tajriba jarayonida o'quvchilarning ijodiy fikrlashi, mustaqil faoliyatga tayyorligi, kommunikativ kompetensiyasi hamda muammoli vaziyatlarga kreativ yondashuvi baholab borildi.

Tajriba-sinov ishlari Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Jizzax hamda Farg'ona viloyatlaridagi umumta'lim maktablarida olib borildi. Unda jami 543 nafar respondent ishtirok etdi. Tajriba guruhi 263 nafar, nazorat guruhi esa 280 nafar o'quvchidan iborat bo'ldi.

Tajriba boshlanishidan oldin va yakunida o'quvchilarning bilim va ijodiy faoliyat darajalari "yuqori", "o'rta" va "past" mezonlari asosida aniqlashtirildi.

Tajriba guruhi natijalariga ko'ra, dastlab yuqori ko'rsatkichga ega o'quvchilar soni 59 nafarni tashkil etgan bo'lsa, tajriba yakunida bu ko'rsatkich 105 nafarga yetdi. Past darajadagi o'quvchilar soni esa 87 nafardan 22 nafarga kamaydi. Nazorat guruhida esa ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan bo'lsa-da, ular tajriba guruhiga nisbatan sezilarli darajada past bo'ldi.

Olingan natijalarni matematik-statistik jihatdan tahlil qilish maqsadida o'rtacha qiymatlar, dispersiya ko'rsatkichlari va baholash mezonlari hisoblandi. Statistik tahlil natijalari tajriba guruhining o'rtacha ko'rsatkichi 2,42 ga, nazorat guruhiniki esa 2,01 ga teng ekanligini ko'rsatdi.



Tajriba guruhidagi o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi foiz hisobida 80,6 foizni, nazorat guruhida esa 67 foizni tashkil etdi. Demak, tajriba guruhi natijalari nazorat guruhiga nisbatan 13,6 foiz yuqori ekanligi aniqlandi.

Mazkur ko'rsatkichlar sinfdan tashqari mashg'ulotlarda qo'llanilgan interfaol metodlar, xususan, "Grafik test", "Xatoni top", loyihaviy yondashuv va STEAM integratsiyasi o'quvchilarning ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita bo'lganini tasdiqlaydi.

Statistik tahlil natijalari o'qitish samaradorligi mezonining birdan katta, bilish faolligi ko'rsatkichining esa musbat qiymatga ega ekanligini ko'rsatdi. Bu esa tajriba guruhidagi o'zgarishlar tasodifiy emas, balki tadqiqot metodikasi samaradorligining natijasi ekanligini isbotlaydi.

Muhokama: Olingan natijalar sinfdan tashqari ishlarning o'quvchilar ijodkorligini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari yuqori ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ijodkorlikni rivojlantirish faqat nazariy bilim berish bilan emas, balki amaliy va erkin faoliyat muhitini yaratish orqali amalga oshiriladi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda qo'llangan interfaol metodlar o'quvchilarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirdi. Ayniqsa, "Grafik test" metodida vizual va mantiqiy faoliyatning uyg'unlashuvi, "Xatoni top" metodida esa tahliliy va tanqidiy tafakkurning rivojlanishi kuzatildi.

Muhokama jarayonida shuningdek, pedagogning roli ham alohida ahamiyat kasb etishi aniqlandi. O'qituvchi faqat nazorat qiluvchi emas, balki o'quvchini rag'batlantiruvchi, maslahat beruvchi va hamkor sifatida faoliyat yuritgan holatlarda mashg'ulotlarning samaradorligi yuqori bo'ldi.

STEAM yondashuvi asosidagi faoliyatlar o'quvchilarda real hayotiy vaziyatlarga moslashuvchanlik, muammoni kompleks ko'ra olish hamda fanlararo bog'liqlikni tushunish ko'nikmalarini rivojlantirdi. Bu esa zamonaviy kompetensiyaviy ta'lim talablariga mos keladi.

Tadqiqot natijalari boshqa ilmiy izlanishlar bilan hamohang bo'lib, sinfdan tashqari ishlarning ijodkorlikni rivojlantirishdagi didaktik salohiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.



Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarda ijodiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, kommunikativ kompetensiya va kreativ yondashuvni rivojlantirishning samarali pedagogik vositasi hisoblanadi. "Grafik test" va "Xatoni top" metodlari hamda STEAM yondashuvi asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning tahliliy tafakkuri, kuzatuvchanligi, fanlararo integratsion fikrlashi va innovatsion qarashlarini shakllantirishga xizmat qilishi aniqlandi. Shuningdek, shaxsga yo'naltirilgan pedagogik yondashuv va takomillashtirilgan metodika samaradorligi tajriba-sinov natijalari orqali tasdiqlanib, tajriba guruhi ko'rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan 13,6 foiz yuqori ekanligi belgilandi. Umuman, sinfdan tashqari ishlar asosida o'quvchilarda ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodlarini takomillashtirish ta'lim sifatini oshirish va kreativ shaxsni tarbiyalashning muhim omili ekanligi isbotlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–60-son Farmoni. – Toshkent, 2022.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–79-son Farmoni. – Toshkent, 2023.
4. Sharipov Sh.S. Kreativ pedagogika asoslari. – Toshkent: Fan, 2022.
5. Xodjayeov B.X. Pedagogik mahorat va innovatsion ta'lim texnologiyalari. – Toshkent, 2021.
6. Safarova R.G. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2021.
7. Mardonov Sh.Q. Ta'limda kompetensiyaviy yondashuv. – Toshkent, 2023.
8. Kolb D. Experiential Learning and Education. – New York, 2021.
9. Marzano R. Effective Teaching and Learning Strategies. – London, 2022.
10. Creativity and Educational Innovations. International Journal of Education Research. – 2024.
11. STEAM Education and Creative Development. Journal of Modern Pedagogy. – 2023.
12. Innovative Approaches in Extracurricular Education. Educational Sciences Review. – 2025.